

"TASDIQLAYMAN"

Buxoro viloyat
hokimi o'rinbosari


N.N. Hamdamov

2021yil

"KELISHILDI"

Buxoro viloyat hokimligi huzuridagi
yagona buyurtmachi xizmati injiniring
kompaniyasi direktori


F. Jalliyev

2021yil

«KELISHILGAN»

Buxoro viloyati maktabgacha
ta'lim Boshqarmasi boshlig'i


M.S. Rajabov

2021 y.

«KELISHILGAN»

Buxoro viloyati qurilish
Bosh boshqarmasi boshlig'i


SH. Mannanov

2021 y.

“Jondor tumani “Xumin” MFYdagi 120 o‘rinli 17-sonli MTTni rekonstruksiya qilish va oshxona binosini qurish”

Ishchi loyihani ishlab chiqish uchun

VAZIFA

**Bosqich
RP (ishchi loyiha)**

Buxoro-2022 yil

№	Asosiy ma'lumotlar va talablar	Asosiy ma'lumotlar va talablarning mazmuni.
1	Ob'ekt nomi.	Jondor tumani "Xumin" MFYdagi 120 o'rinli 17-sonli MTTni rekonstruksiya qilish va oshxona binosini qurish.
2	Ob'ekt manzili	
3	Loyihalashtirish uchun asos.	Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 13 ноябрдаги 689-Ф-сон фармойишига асосан Ишчи гуруҳ таклифи.
4	Buyurtmachi	Бухоро вилоят хокимлиги хузуридаги "Ягона буюртмачи хизмати инжиниринг компанияси."
5	Bosh loyihachi.	Tanlov savdolari natijalariga asosan
6	Bosh pudratchi qurilish tashkiloti	Tanlov savdolari natijalariga asosan
7	Rekonstruksiya qilish va oshxona binosini qurishining taxminiy muddatlari.	2022 yil
8	Loyihalashtirish bosqichi	1 bosqichli loyihalashtirish
9	Qurilish turi	Rekonstruksiya qilish va oshxona binosini qurish
10	Moliyalashtirish manbai.	Budjet mablag'lari.
11	Ob'ektning yo'nalishi va asosiy ko'rsatkichlari (umumiy maydoni, hajmi, o'lchamlari va boshqalar)	<p>Jondor tumani "Xumin" MFYdagi 120 o'rinli 17-sonli MTTni rekonstruksiya qilish va oshxona binosini qurish.</p> <p>Rekonstruksiya qilish va oshxona binosini qurishda quyidagi texnik ko'rsatkichlarni inobatga olish:</p> <p>Qurilish maydoni -553,0 m2;</p> <p>Binoning umumiy maydoni – 942,90 m2;</p> <p>- majlislar zali – 1 dona.</p> <p>Konstruktiv yechimlar binoning texnik tekshiruvi to'g'risidagi hisobot natijalariga ko'ra belgilanadi.</p> <p>Poydevorlar - lentali quyma temir-beton.</p> <p>Bino karkasli variantda:</p> <p>Ustunlar - temir-beton</p> <p>Rigellar-Temir-beton</p> <p>Devor- pishgan g'isht</p> <p>Oraliq yopmalar va tom yopmalar g'ovakli temir-beton plita</p> <p>Deraza – yog'och va alyumin romdan</p> <p>Eshiklar – yog'och va MDFdan</p> <p>Pol qismi- Yog'och, linolyum, yo'laklar betonli va keramik plitali.</p> <p>Zinapoyalar - beton</p> <p>Tom yopmasi- chordoqli tom profnastil qoplamali _____</p>
12.	Binolni pardoqlash va ish hajmlariga qo'yiladigan talablar	<p>Loyihada quyidagilarni inobatga olish:</p> <p>1. Buzish ishlari.</p> <p>Bino uchun olingan texnik hulosaga asosan, buyurtmachi bilan kelishilgan holda mavjud pol qismini tag asosigacha, deraza va eshik romlarini, ichki</p>

muhandislik tarmoqlarini buzub olish, eski suvoq qatlamlar va pardozi qoplamalarini kuchirish, xamda qurilish chiqindilarini olib chiqib ketish xarajatlarini hisobga olish (nuqsonli dalolatnoma bo'yicha).

2. O'rnatish ishlari.

2.1. Barcha yog'och derazalarni almashtirish.

Derazalar, podokonniklari bilan ikki kamera oynali PVXdan tayyorlangan; shamollatish tizimi uchun derazalar ochgichlari murakkab mexanizmlili yoki fortichkali;
- tashqi deraza tokchalari ruhlangan tunukadan;

2.2. Barcha eshik romlarini almashtirish.

Eshik romlarida quyidagilarni etiborga olish:

- xonalarda kamida qalinligi 6,0 mm va kengligi 1,2 m MDF materialidan tayyorlangan oynali,
 - hojatxonalarda - MDF yopiq (gluxoy).
- Ovqatlanish, arxiv, server xonasi, elektr shit xonasi - o'tga chidamli materialdan eshiklarni o'rnatish;
- eshik qulflari zamonaviy, bardoshli va sifatli.
 - tashqi vitrajlar alyuminiy profildan.
 - favqulotda yong'in xavfsizligi eshiklar loyihalashda amaldagi yong'in xavfsizligi talablariga muvofiq.

3. Pollarni ta'mirlash

Pol yotqizish ishlarida:

- Xonalarda va yo'laklarda PVX linolyumdan plintus uchun 7,0sm qayrilgan, yoki MDF plintusdan; (1-qavatning pollari ko'pikli polistirol yoki pinoplast bilan izolyatsiya qilinishi kerak); ma'muriyat xonalarida laminat taxta. (1-qavatning pollari ko'pikli polistirol yoki pinoplast bilan izolyatsiya qilinishi kerak);
- birinchi qavat koridorlari, lobbi va xollar pollari "Keramogranit"
- hojatxonalarda pollar - keramik plitkalar, xonaning chekka burchagida nishab bilan trap urnatishni inobatga olish, Genuya kosasini pol sathidan bir qadam balandroq o'rnatishni inobatga olish.

4. Pardoqlash ishlari

- devorlar suvoqlash, so'ngra suvli bo'yoq bilan bo'yash (rangli bo'yoqlardan foydalanish va keyinchalik akril bo'yoq bilan bo'yash);
- shiftlar suvoqlash, so'ngra suvli bo'yoq bilan bo'yash (elektr simlarini yopish uchun gipsokartondan foydalanish).
- hojatxonalarda keramik plitkalar - h-1,5 m balandlikda. yuvinish moslamalarini o'rnatishda bir butunli pol sathidan chiquvchi umivalniklardan foydalanish.

4. Tashqi devorlar va ayvon.

- turli xil rangdagi fasad bo'yoqlari bilan devorlarni bo'yash, "Travertin".
- sokol keromogranit yoki "Mramirniy korka").

5. Texnik shartlarga muvofiq ichki muhandislik tarmoqlari va tizimlarini to'liq almashtirish

- sovuq suv bilan ta'minlash tizimi o'lchash moslamasidan. Ichki sovuq suv ta'minoti polipropilen (PP) asosidagi quvurlardan iborat bo'lishi kerak. Ichimlik suvi ta'minotining magistral quvurlarini shaxtalarda yotqizish kerak. Sovuq suv iste'molchilariga quvur liniyalari va chiqish joylarini yotqizish devor ostida (kanallarida) yashiringan holda amalga

oshirilishi kerak. Kirish joyida sovuq suv iste'moli hisoblagichini inobatga olish kerak.

- issiq suv ta'minoti va isitish tizimi (Buyurtmachi bilan kelishilgan holda individual modulli qozonxona o'rnatish). Bitta quvurli tizimni nasos o'rnatish bilan qo'llash. Quvur ichidagi suvning sovishini oldini olish uchun quvurlar issiqlik izolatsiyasini qo'llash. Quvurlar devor ostida (kanallarida) yashiringan holda amalga oshirilishi kerak. Radiatorlar-bimetalik.

- ichki kanalizatsiya tizimi. Ichki kanalizatsiya tarmoqlari yuqori quvvat va gigienik xususiyatlarga ega bo'lgan PVX quvurlaridan tayyorlanishi kerak. Kanalizatsiya quvurlarini shaxtalarga yotqizish. Kanalizatsiya chiqadigan joyni tashqi kanalizatsiya tarmog'iga ulash. Tiqilib qolishi mumkin bo'lgan joylarda kanalizatsiya quvurlarini qayta ko'rib chiqish va tozalash imkoniyatini ta'minlash.

- hojatxona xonalarida xonaning chekka burchagida nishab bilan trap urnatishni inobatga olish, Genuya kosasini pol sathidan bir qadam balandroq o'rnatishni inobatga olish. Yuvinish moslamalarini o'rnatishda bir butunli pol sathidan chiquvchi umivalniklardan foydalanish.

- elektr ta'minoti tizimi mavjud ASU(VRU)dan uni almashtirish orqali va Buyurtmachi bilan kelishilgan holda qo'shimcha rozetkalarini o'rnatish bilan, kalitlar(viklyuchatel)ni pol satxidan 0,90 m, rozetkani 0,40 m balandlikda o'rnatish;

- mavjud telefon juftlarini saqlab qolgan holda ichki telefon tarmoqlari;
- avtomatik yong'in signalizatsiyasi tizimi bog'cha chiqish signaliga ulash;

- yong'in paytida ogohlantirish va odamlarni evakuatsiya qilishini boshqarish tizimi bog'cha chiqish signaliga ulash;

- shamollatish tizimida xonalarning maqsadiga qarab va mavjud standartlarga muvofiq va yong'in o'chirish klapanlarini o'rnatish;

- tabiiy shamollatish tizimini derazalardagi shamollatish klapanlari orqali ta'minlash.

-LVS (mahalliy hisoblash tarmog'i);

6. Tomni ta'mirlash.

Tomni nuqson dalolatnomasiga asosan ta'mirlash. (Qalinligi kamida 0,5 mm bo'lgan bo'yalgan gofrotunukali qoplama (profnastil).);

Yong'ir suv quvuri (vodostok) - tashqi tashkil etilgan yong'ir suv lotoklari va suv quvuri polimer qoplamali ruxlangan metal quvurdan. Yong'ir suv quvurlarini drenaj tizimining er osti drenajiga chuqurlashtirish zarur.

7. Zina panjaralari.

Zina to'siqlarini almashtirishni ta'minlash (nuqsonli dalolatnoma bo'yicha).

To'siqlar turli balandliklarda ikkita tutqichga ega bo'lishi kerak. ($h = 0,90$ m va $h = 1,20$ m.)

- zinapoya maydonchasi va zinapoyalar - marmar yoki oq aglomerat (bir bo'lak), zinalarda qalinligi 3,0 sm, zinalar tagida - 2,0 sm.

- kirish maydonchasi poliga qum bilan ishlov berilgan granitni qo'llash.

13.	Konstruktiv echimlarga qo'yiladigan talablar	Qurilish-montaj ishlarining turiga qarab, konstruktiv echimlar loyiha bilan ta'minlanishi kerak, shu jumladan devorlar (yoriqlar) ning shikastlangan uchastkalarini mustahkamlash va mahkamlash, bundan oldin Buyurtmachi bilan ishlatiladigan materiallar va mahsulotlar to'g'risida kelishib olish (Bino uchun olingan texnik hulosaga asosan).
14	"Er uchastkasini rejalashtirishni tashkil etish sxemasi" bo'limiga talab	-Old tomonidan ochiq to'siqlar (narujnoe ograjdeniya) ; - Tashqi hojatxona 2 ochko; - Nazorat punkti; - Maishiy xizmat ko'rsatish maydoni (choyshablarni quritish, gilam va boshqa anjomlarni tozalash joylari bilan); -Xonalarda ventilyatsiya tizimi bilan ta'minlash; -Tashqi eshiklarda soyabon o'rnatish; -O't o'chirish uchun mo'ljlanlangan nasos (zarur bo'lganda);
15	Kommunal va muhandislik tizimlariga qo'yiladigan talablar	Ichki muhandislik tarmoqlari va tizimlari amaldagi me'yoriy talablarga muvofiq bajarilishi kerak. Yong'in signalizatsiyasi signallari, videokuzatuv, maktab qo'ng'irogi, o't o'chirish punktini birinchi qavat foyesida joylash.
16	Loyiha echimlarini kelishishga qo'yiladigan talablar	Loyihalash tashkiloti loyihalash hujjatlarini barcha manfaatdor tashkilotlar, shu jumladan buyurtmachi bilan kelishish.
17	Namoyish materiallarini tayyorlash	Buyurtmachiga topshirish uchun namoyish materialini ishlab chiqish, shu jumladan binolarni pardoqlashni (koridorlar, majlislar zali, yo'lak, yotoqxonalar (spalnya), o'yinlar xonasi (igralniy zal), yechinish xonasi (razdevalka), sanitariya bo'linmasi) zamonaviy dizayn elementlaridan foydalangan holda bezash ishlari al'bomi, GUS va GASNga taqdim etish uchun binoning fasadi, bosh rejalari.
18	Favqulodda vaziyatlar oldini olish tadbirlarini ishlab chiqish zarurati	Talab qilinmaydi.
19	Energiya samaradorligi.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 02.06 yildagi 161-sonli qaroriga, PKM 20.10.2015 yildagi 299-sonli qaroriga binoan loyiha energiya tejaydigan lampalarni o'z ichiga oladi.
20	Nogironlarning yashash sharoitlarini ta'minlashga qo'yiladigan talablar.	Nogironlar uchun pandus
21	Smeta hujjatlarini ishlab chiqish zarurati.	Ishlab chiqishda quyidagi ish xajimlarni kuzda tutish: Ishchi chizmalar, resurs smetalari tarkibida lokal resurs xisobi bilan (manbalarni satrma dekodlash bilan), materiallar (resurslar) sarfi xisobi. Qurilishning boshlang'ich narxini amaldagi narxlarda hisoblash.
22	Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan asosiy dastlabki ma'lumotlar.	Xarajatlar kalkulyatsiyasiga kiritiladigan demontaj ishlari inventarizatsiyasi. – Kommunal xizmatlarni ulash uchun texnik shartlar. (Agar xoxlasangiz) – Buyurtmachining loyiha takliflari. Boshqa dastlabki ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyoj tomonlarning o'zaro kelishuvi asosida joriy tartibda aniqlanadi.
23	Maxsus shartlar.	Pudratchi ekspertiza davomida dizayn echimlarini himoya qilishni ta'minlaydi. Ekspertiza xizmatlari uchun to'lovni Buyurtmachi ekspertiza organlari bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar asosida amalga oshiradi.

24	Buyurtmachiga taqdim etiladigan hujjatlar	SHNK 1.03.01-08 va 2.9 "Binolar va inshootlarning kapital qurilishining tarkibi, ishlab chiqish tartibi, loyiha hujjatlarini kelishish va tasdiqlash". - Ishchi loyiha, lokal va resurs cmetalari - 3 nusxada, - Lokal va resurs cmetalari elektron versiyasi (disk) bilan, - Binolarni pardoqlashni (koridorlar, majlislar zali, yo'lak, yotoqxonalar (spalnya), o'yinlar xonasi (igralniy zal), yechinish xonasi (razdevalka), sanitariya bo'linmasi) zamonaviy dizayn elementlaridan foydalangan holda bezash ishlari al'bomi.
----	---	--

Loyiha topshirig'ini tuzuvchi " Buxoro viloyati xokimligi xuzuridagi yagona buyurtmachi injenering kompaniyasi "

Bo'lim boshlig'i
"Buxoro viloyati xokimligi xuzuridagi
yagona buyurtmachi injenering kompaniyasi"



B.Xayitov